



## QORAQOLPOG'ISTON ERTA VA TAKRORIY MUDDATDA EKILGAN SHIRIN QALAMPIR NAVLARIDA MORFOBIOLOGIK ELEMENTLARNING PAYDO BO'LISHINI ANIQLASH.

**Matiyakubov X.**

Ilmiy raxbar. q/x.f.n. dots.

**Sherimbetova X.**

**Sherimova Sh.X.**

talaba

Stajyor izlanuvchi.

Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10441904>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-December 2023 yil

Ma'qullandi: 25- December 2023 yil

Nashr qilindi: 29- December 2023 yil

### KEY WORDS

*Ildiz vazni, barg sathi, Pamir, Gampion, Poya qalinligi, erta muddat, takroriy muddat, matematik tahlil, statistik ishlov berish,*

### ABSTRACT

*Sabzavotchilik nuqtayi nazaridan olib qaraganda har bitta sabzavotning dalada to'liq ko'karib chiqqandan keyin unda vegetativ va generativ organlarning paydo bo'lishi va murakkab sharoitda ularning to'liq shakllanishi ekindan mo'l va sifatli hosil olishda samarali natija beradi. Albatta bunda navlarning unib chiqishi, barg chiqarishi, barg soni, sathi kattaligi, poya balandligi, ildiz uzunasi va qator morfobiologik ko'rsatkichlarini aniqladik.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligin rivojlantirish jamg'armasidan subsidiya sifatida ajratilishi ta'kidlangan. Bu qaror zamirida sarimsoq yetishtirishni to'g'ri tashkil etish, mahsulot hajmini ko'paytirish va eksportini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Biz tadqiqotlarda erta va takroriy muddatlarda shirin qalampirning yuqori hosildor va sifatli bo'lgan 10 ta navini sinovdan o'tkazdik va yaxshi bo'lgan navlarni ishlab chiqarishda qo'llash uchun tavsiya berdik. Albatta bunda navlarning unib chiqishi, barg chiqarishi, barg soni, sathi kattaligi, poya balandligi, ildiz uzunasi va qator morfobiologik ko'rsatkichlarini aniqladik. (1-jadval)

Dastlabki kuzatuvlarimiz ildiz vazni, barg poya vazni, barg soni, barg sathi kabi muhim morfobiologik ko'rsatkichlari shular jumlasidandir. Quyidagi jadvalda eng yuqori ko'rsatkichni erta va takroriy muddatlarda Sabo va Zumrad, Pamir navlarida namoyon bo'ldi. 1-jadval

Erta va takroriy muddatda shirin qalampirning nav namunalarning morfologik ko'rsatkichlari

№	Nav namunalari	Bir tup o'simlikdagi shirin qalampir dagi ...								Barg sathi, ga/ming m <sup>2</sup>
		Ildiz vazni (A)		Barg, poya vazni (B)		Barglar soni (C)		Barg sathi (D)		
		G	%	g	%	Dona	%	dm <sup>2</sup>	%	
<i>Shu jumladan erta muddatda</i>										
1	Nargiza	43,5	92,8	268,5	93,8	184,6	91,1	48,1	93,0	22,9
2	Sabo	50,2	107,0	303,5	106,0	215,6	106,4	57,8	111,8	27,5
3	Zarya Vostoka	43,1	91,9	262,0	91,1	181,0	89,3	44,6	86,3	21,2
4	Lastochka	46,0	98,1	280,5	98,0	194,5	96,0	53,2	102,9	25,3
5	Shodlik	51,0	100,0	305,2	100,0	215,6	100,0	50,2	100,0	23,9
<i>Shu jumladan takroriy muddatda</i>										
6	Zumrad	55,6	109,0	332,0	108,8	236,4	109,6	58,7	116,9	28,0
7	Tong	46,0	98,1	275,6	96,3	200,0	98,7	47,3	91,5	22,5
8	Pamir	49,6	105,8	302,5	105,7	215,2	106,2	57,8	111,8	27,
9	Gampion	44,5	94,9	275,6	96,3	195,8	96,6	45,9	88,8	21,9
10	Bolgarskiy 79	54,3	106,5	325,2	106,6	230,2	106,8	57,8	114,9	27,5

Glushenko E.Ya., Voronina M.V., Strekalova A.I., bo'yicha shirin qalampir o'simligini tupini balandligi bo'yicha quyidagicha bo'lishi mumkin (sm): juda past (25sm dan katta); past (26-45 sm oralig'ida); o'rtacha (46-65 sm oralig'i); baland (66-86 sm oralig'i) va juda baland (86 sm dan kichik).

2-jadvaldan ko'rinib turganidek, o'rganilgan navlar orasida baland va juda baland bo'yli nav namunalari bo'lmadi. Ko'pchilik o'rganilgan navlar past va o'rta bo'yli guruhga kiritildi. Jumladan erta muddatda o'simlik bo'yi yoppasiga meva pishish davrida 39-53 sm oralig'ida bo'ldi. Bunda esa eng baland bo'yli nav Nargiza navi ekanligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni bo'yi 53,1 sm.

Takroriy muddatda bo'lsa erta muddatga qaraganda farq kattaroq bo'lganligi kuzatildi ya'ni 49-57 sm oralig'ida bunda esa eng baland shirin qalampir navi Bolgarskiy 79, Zumrad navlari ekanligi ma'lum bo'ldi.

Albatta bu ko'rsatkichlar Qoraqolpog'iston Respublikasi uchun juda yaxshi natija ekanligi kuzatildi.

Har bitta kuzatuvlar aniq metodlar yordamida aprobatsiya jadvallaridagi ma'lumotlariga tayangan holda olindi. Matematik tahlil orqali yanayam aniq bo'lishida statistik ishlov berib borildi.

#### 2-jadval

Shirin qalampirning erta va takroriy muddatda nav namunalarning morfologik ko'rsatkichlari

№	Nav namunalari	Ekishdan oldin, sm		Kuzatuv davrlari			
		o'simlik bo'yi	Poyasining qalinligi	Yoppasiga gullagan davrida, sm		Yoppasiga meva pishish davrida, sm	
				o'simlik bo'yi	poya qalinligi	o'simlik bo'yi	poya qalinligi
<i>Shu jumladan erta muddat</i>							
1	Nargiza	21,5	0,27	28,0	0,51	53,1	1,33
2	Sabo	18,6	0,27	26,0	0,49	46,9	1,31
3	Zarya Vostoka	16,6	0,32	21,6	0,54	38,8	1,41
4	Lastochka	20,1	0,26	20,1	0,52	42,2	1,35
5	Shodlik	18,9	0,31	28,4	0,56	51,0	1,34
<i>Shu jumladan takroriy muddat</i>							
6	Zumrad	22,0	0,32	35,2	0,61	56,3	1,46
7	Tong	17,5	0,30	24,5	0,51	49,0	1,48
8	Pamir	18,5	0,28	25,9	0,53	49,2	1,38
9	Gampion	20,5	0,29	26,7	0,58	53,3	1,28
10	Bolgarskiy 79	19,5	0,29	27,3	0,58	57,3	1,27

#### References:

1. Mirziyoyev Sh.M. PF-4947 son. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» Prezident farmoni–Toshkent, 2017 yil 7 fevral.
2. Berejnova V.V., Qoraboyev M.A. Boshqoli don ekinlaridan keyin takroran sabzavot va kartoshka ekib, yuqori hosil yetishtirishga oid tavsiyanoma. // Toshkent, 2002. – 1-3 B.
3. Djurov P.G. Bespochvennoye virashivaniye rasteniy sladkogo persa v usloviyax Uzbekistana. // Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata selskoxozyaystvennix nauk. Tashkent, 1972. – S. 1-4.